



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 474 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назокат Норматомовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....	116
<b>Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi</b>	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy .....	120
<b>Inomidinova Dildorxon Ikramovna</b>	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
<b>M. S. Usmonova</b>	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners .....	130
<b>Tahirova Shaxribonu</b>	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
<b>Хамидова Нигора Тулкуновна</b>	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli .....	142
<b>Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi</b>	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
<b>Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna</b>	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiroital paradigmalarning mohiyati .....	151
<b>Ashurova Gulru</b>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
<b>Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich</b>	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
<b>Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li</b>	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract .....	162
<b>Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
<b>Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida) .....	170
<b>Jabborova Muslima Toxirovna</b>	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari .....	175
<b>Karimova Barno Ergashevna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	178
<b>Mamanazar Djumayev</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari .....	187
<b>Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna</b>	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi .....	191
<b>Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li</b>	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
<b>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</b>	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish .....	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi .....	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish .....	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar .....	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari .....	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida .....	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность .....	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari .....	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi .....	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari .....	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish ....	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish .....	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish .....	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной .....	315
<i>Эсонов Мунавваржон Мукумжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish .....	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari .....	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi .....	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth .....	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati .....	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish .....	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi .....	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari .....	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil .....	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari .....	359
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Bo'linishga doir olimpiada masalalarini yechish metodikasi va ularning ilmiy-amaliy tahlili .....	365
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni vujudga kelish omillari .....	369
<i>Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi</i>	
Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....	374
<i>Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich</i>	
Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati .....	379
<i>Abdusalomov Doniyor Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida .....	383
<i>Ali Tursaotov</i>	
Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning sanogen refleksiyani rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari .....	388
<i>Ismailov Murodulla Kaxramonovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish .....	395
Madjitova Sitora Sobit kizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	399
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish omillari .....	402
Ummatov Baxtiyor	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati .....	407
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboyev Navruz Ilhombek o'g'li	
Ta'lim tizimida gender tengligi.....	410
Nazarova Malohat Axmedovna, Sayfiddinova Barno, Axmedova Nasiba	
Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning mazmun-mohiyati.....	414
Odilova Mahfuza Ochilovna	
Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ota-ona va surdopedagog hamkorligini rivojlantirish texnologiyasi.....	418
Rahimova Nargiza Alisherovna	
O'zbek tili darslarida milliy kontentga asoslangan matnlarni tanlash tamoyillari .....	421
Saparbayeva Indira Shadibekovna	
Autizm sindromi - o'rganilish tarixi va zamonaviy metodikalar tahlili .....	424
Jo'rayeva Sayyora Axmadjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish .....	428
Sharafutdinova Durдона Akmelevna, Niyazova Umida Shomansurovna	
Tabiat bilan tanishtirishda turli metodlarni qo'llash va tabiat bilan tanishtirishning pedagogik ahamiyati .....	433
Xalmatov Misiddin Muxammadovich	
Kommunikativ qobiliyat tushunchasining psixologik mazmuni .....	437
Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna	
Biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari .....	443
Moxigul Muydin qizi Burxanova	
Культура речи медицинского работника .....	447
Рузметова Наргиза Ахмедовна	
Образ города как пространства памяти и идентичности в прозе дины рубиной.....	454
Чернова Татьяна Алексеевна, Назаров Бехруз, Фарходов Диёрбек, Бурибайев Нодир	
Rang konseptlarining lingvomadaniy tabiati va pedagogik ahamiyati: nazariy asoslar .....	457
Arabova Gulinur Yuzboy qizi	
Rang konseptlarini o'qitishga oid xalqaro tadqiqotlar tahlili: ilmiy bo'shliqlar va metodologik istiqbollari .....	461
Arabova Gulinur Yuzboy qizi	
Типология трудностей формирования навыков иноязычного говорения в начальной школе.....	466
Огай Мукаддасхон Халваевна	



# IJTIMOYIY TARMOQLARDA ANONIMLIKNI VUJUDGA KELISH OMILLARI

Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi  
Namangan davlat pedagogika instituti doktranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda anonimlik fenomenining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Anonimlikning texnologik, psixologik va ijtimoiy omillari o'rganilib, ularning foydalanuvchilar xulq-atvoriga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari anonimlik foydalanuvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga imkon yaratishi bilan birga, internet-agressiya, kiberbulling va destruktiv kommunikatsiyaning kuchayishiga ham sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** anonimlik, ijtimoiy tarmoqlar, internet-agressiya, kiberbulling, onlayn xulq-atvor, raqamli kommunikatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the factors influencing the formation of the anonymity phenomenon in social media. Technological, psychological, and social determinants of anonymity are examined, along with their impact on user behavior. The findings indicate that anonymity enables users to express their opinions more freely; however, it may also contribute to the growth of internet aggression, cyberbullying, and destructive forms of online communication.

**Key words:** anonymity, social media, internet aggression, cyberbullying, online behavior, digital communication.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы факторы, влияющие на формирование феномена анонимности в социальных сетях. Рассмотрены технологические, психологические и социальные аспекты анонимности, а также их влияние на поведение пользователей. Результаты исследования показали, что анонимность способствует более свободному выражению мнений пользователей, однако одновременно может усиливать интернет-агрессию, кибербуллинг и деструктивные формы онлайн-коммуникации.

**Ключевые слова:** анонимность, социальные сети, интернет-агрессия, кибербуллинг, онлайн-поведение, цифровая коммуникация.

## KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi muloqotning muhim vositasiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan bir qatorda anonimlik fenomeni ham keng tarqalmoqda. Anonimlik foydalanuvchining o'z shaxsini to'liq yoki qisman yashirgan holda internet muhitida faoliyat yuritishini anglatadi. Ushbu holat ayrim foydalanuvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini bersa, boshqa hollarda agressiv va mas'uliyatsiz xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin <sup>[1]</sup>.

Bundan tashqari, anonimlik zamonaviy raqamli makonda shaxsning virtual identifikatsiyasini shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ko'plab foydalanuvchilar internet muhitida o'zlarining real hayotdagi ijtimoiy mavqei, kasbiy roli yoki kundalik munosabatlaridan mustaqil ravishda yangi kommunikativ obraz yaratishga intiladilar. Natijada anonimlik nafaqat shaxsiy ma'lumotlarni yashirish usuli, balki o'zini namoyon etishning muqobil shakliga ham aylanmoqda. Bu holat foydalanuvchilarning onlayn faolligini oshirishi, turli mavzulardagi munozaralarda erkin ishtirok etishiga imkon yaratishi bilan birga, ayrim vaziyatlarda virtual va real shaxsiyat o'rtasidagi tafovutning kuchayishiga ham olib kelishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlarda anonimlik internet foydalanuvchilarining xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanmoqda. Xususan, anonim muhitda insonlarning ijtimoiy nazoratni kamroq his qilishi natijasida salbiy fikrlar va tajovuzkor izohlar sonining ortishi kuzatiladi <sup>[2]</sup>. Qolaversa, anonimlikning ta'siri faqat salbiy xulq-atvorning kuchayishi bilan cheklanib qolmaydi. Ayrim hollarda u foydalanuvchilarga ijtimoiy bosimdan xoli bo'lgan muhitda o'z fikrlarini ochiq bayon qilish, dolzarb muammolarni erkin muhokama etish hamda ijtimoiy jihatdan nozik mavzular yuzasidan faol ishtirok etish imkonini beradi. Anonimlikning xulq-atvoriga ta'siri ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, u shaxsning ichki motivatsiyasi va undan foydalanish maqsadlariga bevosita bog'liqdir.

Shu sababli anonimlikning yuzaga kelish omillarini o'rganish internet psixologiyasining dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni vujudga keltiruvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularning foydalanuvchilar xulq-atvoriga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda anonimlik fenomeni ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi xulq-atvorini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylandi. Ushbu yo'nalishda turli olimlar anonimlikning psixologik va ijtimoiy oqibatlarini turlicha talqin qilganlar.

Patchin va Hinduja (2015) anonimlikni kiberbulling jarayonini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, foydalanuvchi o'z shaxsi yashirilganini his qilganda, real hayotda sodir etmaydigan tajovuzkor xatti-harakatlarni internet muhitida amalga oshirishi ehtimoli ortadi <sup>[1]</sup>. Shu nuqtai nazardan qaraganda, anonimlik faqat texnik imkoniyat emas, balki shaxsning xulq-atvorini o'zgartiruvchi psixologik "himoya qalqoni" sifatida ham namoyon bo'ladi. Natijada inson o'z harakatlarining oqibatlarini bevosita his qilmagani sababli ijtimoiy javobgarlik darajasi pasayadi va bu holat onlayn muhitda agressiv muloqotning kengayishiga zamin yaratadi.

Santana (2014) anonimlikning onlayn muloqot madaniyatiga ta'sirini o'rganib, anonim foydalanuvchilar ko'proq keskin, tanqidiy va ayrim hollarda haqoratli izohlar qoldirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u anonimlik ayrim vaziyatlarda erkin fikr bildirish imkonini ham yaratishini qayd etadi <sup>[2]</sup>. Ushbu holat anonimlikning ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, u bir tomondan muloqot jarayonida emotsional nazoratning pasayishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan shaxsga ijtimoiy bosimdan xoli holda o'z qarashlarini ochiq ifoda etish imkonini beradi. Natijada anonimlik kommunikativ muhitda ham ijobiy (ochiqlik va erkin fikr bildirish), ham salbiy (agressiv va keskin ifoda usullari) tendensiyalarni bir vaqtning o'zida kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Fire va hamkasblari (2013) anonimlikni soxta profillar va identifikatsiya muammolari bilan bog'liq holda o'rganadilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda anonim yoki soxta akkauntlarning ko'payishi axborotning ishonchlik darajasini pasaytiradi hamda manipulyativ faoliyatning kengayishiga sabab bo'ladi <sup>[3]</sup>. Bunday sharoitda raqamli muhitdagi ishonch darajasi susayadi va foydalanuvchilar tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligini aniqlash murakkablashadi. Natijada ijtimoiy tarmoqlarda axborot oqimi tartibsizlashib, noto'g'ri yoki ataylab buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning tez tarqalish ehtimoli ortadi. Bu esa nafaqat alohida foydalanuvchilarning qaror qabul qilish jarayoniga, balki umumiy ijtimoiy fikrning shakllanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Stella, Ferrara va De Domenico (2018) anonimlik hamda avtomatlashtirilgan botlar faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, anonim yoki yarim anonim botlar ijtimoiy tarmoqlarda salbiy va emotsional kontentning tez tarqalishiga turtki berishini aniqlaganlar <sup>[4]</sup>. Bu jarayon axborot ekotizimida "emotsional yuqumlilik"ni kuchaytirib, foydalanuvchilarning ratsional tahlildan ko'ra hissiy reaksiyalarga tezroq berilishiga olib keladi. Natijada ijtimoiy tarmoqlarda muvozanatli fikr almashinuvi susayib, keskin va polarizatsiyalashgan kontent ustunlik qila boshlaydi. Bunday holat esa jamoatchilik fikrining obyektiv shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sarigol, Garcia va Schweitzer (2014) anonimlikni faqat individual emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham ko'rib chiqadilar. Ularning fikricha, foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish maqsadida anonimlikka intiladilar, biroq bu jarayon jamiyatdagi umumiy raqamli xatti-harakatlar bilan ham shakllanadi <sup>[5]</sup>. Mazkur yondashuv anonimlikning shakllanishi faqat shaxsiy qarorlar natijasi emas, balki ijtimoiy muhit, raqamli madaniyat va tarmoqdagi ommaviy xulq-atvor tendensiyalarining o'zaro ta'siri orqali yuzaga kelishini ko'rsatadi. Ya'ni, foydalanuvchilar ko'pincha atrofda raqamli amaliyotlarga moslashgan holda anonimlikni tanlaydilar va bu holat vaqt o'tishi bilan ijtimoiy me'yor sifatida mustahkamlanib borishi mumkin.

Vandebosch va Van Cleemput (2015) anonimlikni kiberbulling kontekstida o'rganib, uning o'smirlar orasida agressiv xulq-atvorni kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Ularning xulosalariga ko'ra, anonimlik javobgarlik hissini kamaytirib, internetdagi zo'ravonlik holatlarining ortishiga olib keladi <sup>[6]</sup>. Bu holat shuni ko'rsatadiki, anonim muhitda shaxs o'z harakatlarining real oqibatlarini to'liq his qilmagani sababli empatiya darajasi pasayishi va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish motivatsiyasi susayishi mumkin. Natijada, ayniqsa o'smirlar orasida, impulsiv va agressiv kommunikatsiya shakllari ko'proq namoyon bo'lib, kiberbullingning kengayishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida 2013-2025-yillarda chop etilgan anonimlik, onlayn identifikatsiya va internet-agressiyaga oid ilmiy manbalar o'rganildi.



Tahlil jarayonida anonimlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi guruhlariga ajratildi:

- texnologik omillar;
- psixologik omillar;
- ijtimoiy omillar;
- maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq omillar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

**Tadqiqot maqsadi.** Ushbu tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularning statistik ahamiyatini Student t-mezoni asosida baholashdan iborat.

**Tadqiqot obyekti.** Tadqiqotda 18-23 yoshdagi 25 nafar talaba ishtirok etdi. Barcha ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlarning faol foydalanuvchilari hisoblanadi.

**Tadqiqot metodikasi.** Tadqiqotda Steijn va Vedder (2015) tomonidan ishlab chiqilgan Online Privacy Concern Scale (OPC) konsepsiyasi asosida moslashtirilgan so'rovnoma qo'llanildi.

So'rovnoma quyidagi to'rtta asosiy o'lchovni qamrab oldi:

1. Maxfiylik va xavfsizlik (Privacy Concern);
2. Anonimlikka moyillik;
3. Psixologik omillar;
4. Ijtimoiy bosim.

**Baholash mezon.** Respondentlarning javoblari 5 balli Likert shkalasi asosida baholandi (1 - mutlaqo qo'shilmayman; 5 - to'liq qo'shilaman).

Empirik natijalar (o'rtacha qiymatlar).

Asosiy omillar bo'yicha natijalar (n = 25)

1-jadval

Omillar	O'rtacha ball (Mean)	Standart og'ish (SD)
Maxfiylik va xavfsizlik	4.52	0.41
Anonimlikka moyillik	4.18	0.53
Psixologik omillar	4.10	0.47
Ijtimoiy bosim	3.96	0.55

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlar eng yuqori o'rtacha ko'rsatkichni namoyon etdi ( $M = 4.52$ ;  $SD = 0.41$ ). Ushbu natija respondentlarning aksariyati internet muhitida shaxsiy ma'lumotlarning himoyalashiga katta ahamiyat berishini ko'rsatadi. Standart og'ishning nisbatan past darajada bo'lishi ( $SD = 0.41$ ) esa respondentlar fikrlarining bir-biriga yaqin va yuqori darajada uyg'un ekanligini anglatadi.

Ikkinchi eng yuqori ko'rsatkich anonimlikka moyillik omiliga tegishli bo'lib ( $M = 4.18$ ;  $SD = 0.53$ ), bu respondentlarning muayyan qismi internet makonida o'z shaxsini yashirish yoki yarim anonim tarzda faoliyat yuritishga ijobiy munosabatda ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat anonimlikning foydalanuvchilarda psixologik qulaylik va xavfsizlik hissini shakllantirishi bilan izohlanishi mumkin.

Psixologik omillar ham yuqori darajada baholangan ( $M = 4.10$ ;  $SD = 0.47$ ). Bu natija tanqiddan qo'rqish, salbiy baholanishdan xavotirlanish hamda o'z fikrini erkin ifoda etishga bo'lgan ehtiyoj kabi omillar foydalanuvchilarning anonimlikka moyilligini kuchaytirishini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich anonimlik fenomenining ichki psixologik mexanizmlar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy bosim omili nisbatan eng past o'rtacha qiymatni qayd etgan bo'lsa-da ( $M = 3.96$ ;  $SD = 0.55$ ), uning ko'rsatkichi ham o'rtacha darajadan yuqori bo'ldi. Bu holat jamiyat fikri, ijtimoiy me'yorlar va atrof-muhit ta'siri anonimlikning shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Biroq olingan natijalar ijtimoiy bosim anonimlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omil emasligini, maxfiylik va shaxsiy xavfsizlik bilan bog'liq omillar esa nisbatan ustun ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tahlilda asosiy farqlar quyidagi juftliklar bo'yicha tekshirildi:

2-jadval

Taqqoslangan omillar	t-qiyamat	p-qiyamat	Xulosa
Maxfiylik vs Psixologik omillar	2.61	<0.05	Muhim farq mavjud
Maxfiylik vs Ijtimoiy bosim	3.12	<0.01	Juda muhim farq
Anonimlik vs Psixologik omillar	1.48	>0.05	Farq yo'q
Psixologik vs Ijtimoiy bosim	0.97	>0.05	Farq yo'q

Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori o'rtacha ball maxfiylik va xavfsizlik omiliga tegishli bo'lib, bu anonimlikning shakllanishidagi asosiy determinantlardan biri ekanligini ko'rsatdi.

Student t-mezone natijalari maxfiylik omilining psixologik omillar va ijtimoiy bosim omillariga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi ( $p < 0.05$ ). Anonimlikka moyillik ko'rsatkichi esa psixologik omillar bilan kuchli bog'liqlik namoyon qilgan bo'lsa-da, ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ( $p > 0.05$ ). Student t-mezone asosidagi tahlil anonimlikni shakllantiruvchi omillar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Eng muhim natijalardan biri maxfiylik va xavfsizlik omili bilan psixologik omillar o'rtasida sezilarli statistik farq mavjudligi bo'ldi ( $t = 2.61$ ;  $p < 0.05$ ). Ushbu natija maxfiylikka bo'lgan ehtiyoj psixologik omillarga nisbatan kuchliroq determinant ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, maxfiylik va ijtimoiy bosim omillari o'rtasida ham yuqori statistik farq aniqlandi ( $t = 3.12$ ;  $p < 0.01$ ). Bu esa anonimlikning shakllanishida jamiyat bosimidan ko'ra shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash ehtiyoji muhimroq rol o'ynashini anglatadi.

Boshqa omillar juftliklari, xususan, anonimlikka moyillik va psixologik omillar ( $p > 0.05$ ), shuningdek, psixologik omillar va ijtimoiy bosim ( $p > 0.05$ ) o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Mazkur natija ushbu omillarning o'zaro chambarchas bog'liqligini hamda ularning anonimlikka ta'siri nisbatan bir xil darajada namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni shakllantiruvchi eng muhim omil shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj hisoblanadi. Psixologik omillar, jumladan tanqiddan qo'rqish va ijtimoiy baholanishdan xavotirlanish, shuningdek, ijtimoiy bosim omili ham anonimlikning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Student t-mezone natijalari ushbu omillar o'rtasidagi farqlarni statistik jihatdan tasdiqlab, ayniqsa maxfiylik omilining ustun mavqega ega ekanligini yaqqol namoyon etdi.

### Amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikning shakllanishi va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Raqamli maxfiylik savodxonligini oshirish.** Foydalanuvchilarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu ularning anonimlikka haddan tashqari tayanib qolishining oldini oladi hamda xavfsiz raqamli xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Ijtimoiy tarmoqlarda shaffoflik mexanizmlarini kuchaytirish.** Platformalarda foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish tizimlarini takomillashtirish, soxta akkauntlarni aniqlash va cheklash mexanizmlarini rivojlantirish anonimlikning salbiy ko'rinishlarini kamaytirishga yordam beradi.
- Psixologik profilaktika ishlarini yo'lga qo'yish.** Tanqiddan qo'rqish va ijtimoiy xavotir anonimlikka moyillikni kuchaytirishini inobatga olib, yoshlar orasida psixologik treninglar va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.
- Raqamli madaniyatni shakllantirish.** Foydalanuvchilarda onlayn muloqot etikasi, mas'uliyatli fikr bildirish va boshqalarga nisbatan hurmat tamoyillarini rivojlantirish zarur. Bu internet-agressiya va kiberbulling holatlarining kamayishiga xizmat qiladi.
- Maxfiylik va xavfsizlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash.** Foydalanuvchilarga anonimlikni to'liq rad etish emas, balki undan ongli va mas'uliyatli foydalanishni o'rgatish lozim. Chunki anonimlik ayrim holatlarda, masalan, psixologik yordam olish yoki erkin fikr bildirish jarayonlarida ijobiy funksiyani ham bajaradi.
- Ta'lim tizimiga raqamli psixologiya elementlarini joriy etish.** Maktab va oliy ta'lim muassasalarida internet psixologiyasi, onlayn xulq-atvor hamda anonimlikning ijtimoiy-psixologik oqibatlariga bag'ishlangan maxsus modullar yoki o'quv kurslarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari anonimlikning murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik fenomen ekanligini ko'rsatdi. Anonimlik foydalanuvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, ijtimoiy bosim ta'sirini kamaytirish hamda shaxsiy ma'lumotlari maxfiylikni saqlash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, anonim muhit ayrim hollarda mas'uliyat hissining pasayishiga olib kelib, internet-agressiya, kiberbulling va destruktiv kommunikatsiya kabi salbiy holatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar va empirik tadqiqot natijalari anonim foydalanuvchilar orasida agressiv izohlar, keskin fikrlar va salbiy kommunikativ xatti-harakatlar nisbatan ko'proq uchrashini tasdiqladi. Shuningdek, anonim yoki yarim anonim akkauntlar hamda avtomatlashtirilgan botlar salbiy axborot va emotsional kontentning tez tarqalishiga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda sog'lom kommunikativ muhitni ta'minlash masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot davomida anonimlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq ehtiyojlar eng muhim determinant sifatida namoyon bo'ldi. Psixologik omillar va ijtimoiy bosim ham anonimlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar hisoblanadi, biroq ularning ta'sir darajasi maxfiylik omiliga nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi. Student t-mezoni natijalari ushbu farqlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqladi.

Shu bilan birga, anonimlikning ijobiy jihatlari ham mavjud. Xususan, u foydalanuvchilarga psixologik yordam izlash, shaxsiy muammolarni muhokama qilish, ijtimoiy jihatdan nozik masalalar yuzasidan fikr bildirish hamda erkin muloqot qilish imkonini beradi. Shuning uchun anonimlikni faqat salbiy yoki faqat ijobiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Uning ta'siri ko'p jihatdan undan foydalanish maqsadi, kommunikativ muhit va foydalanuvchining shaxsiy xususiyatlariga bog'liq.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarda anonimlik texnologik, psixologik, ijtimoiy hamda xavfsizlik omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu sababli foydalanuvchilarda raqamli madaniyatni rivojlantirish, onlayn mas'uliyat hissini kuchaytirish va xavfsiz internet muhitini yaratishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Patchin J. W., Hinduja S. *Cyberbullying Prevention and Response: Expert Perspectives*. - New York: Routledge, 2020. - 214 p.
2. Santana A. D. *Virtuous or Vitriolic: The Effect of Anonymity on Civility in Online Newspaper Reader Comment Boards* // *Journalism Practice*. - 2014. - Vol. 8, № 1. - P. 18-33.
3. Fire M., Kagan D., Elyashar A., Elovici Y. *Friend or Foe? Fake Profile Identification in Online Social Networks* // *Social Network Analysis and Mining*. - 2014. - Vol. 4, № 1. - Art. 194.
4. Stella M., Ferrara E., De Domenico M. *Bots Increase Exposure to Negative and Inflammatory Content in Online Social Systems* // *Proceedings of the National Academy of Sciences (PNAS)*. - 2018. - Vol. 115, № 49. - P. 12435-12440.
5. Sarigol E., Garcia D., Schweitzer F. *Online Privacy as a Collective Phenomenon* // *Proceedings of the ACM Conference*. - 2014. - P. 95-104.
6. Vandebosch H., Van Cleemput K. *Cyberbullying among Youth: Social and Psychological Perspectives*. - Cham: Springer, 2015. - 228 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.